

TEKNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISH

Jo‘rayeva Sevinchbonu Sherali qizi

SHDPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars o‘tish jarayonida faqat aniq fanlarni emas texnologiya fanini o‘qitishda multimedialı vositalardan foydalanishimiz kerak. Multimedialar foydalanib dars o‘tilsa dars qiziqarli, maroqli va barcha maqsadga erishish oson bo‘ladi. Multimedialardan foydalanyotganimizda qoidalarga e‘tibor berishimiz kerak va o‘z vaqtida qo‘llay olishni bilish kerak.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, multimedia, multimedia ta‘lim dasturi, multimedialı ta‘lim, kompyuterli muhit, individual.

Аннотация: В этой статье урока следует использовать мультимедийные средства при обучении технологиям, а не только точным наукам. Когда уроки проводятся с использованием мультимедиа, урок становится интересным, увлекательным и позволяет легко достичь всех целей. При использовании мультимедиа необходимо обращать внимание на правила и уметь своевременно их применять.

Ключевые слова: Технология, мультимедиа, мультимедийная образовательная программа, мультимедийное образование, компьютерная среда, личность.

Abstract: In this article, We should use multimedia tools in teaching not only exact sciences but also technology in the process of teaching. If the lesson is taught using multimedia, the lesson will be interesting, enjoyable and easy to achieve all the goals. When using multimedia, we should pay attention to the rules and know how to use it in a timely manner.

Keywords: Technology, multimedia, multimedia educational program, multimedia education, computer environment, individual.

KIRISH

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta‘lim jarayoniga joriy etilgandan so‘ng multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Media ta‘lim vositalari ta‘lim muassasalari tomonidan keng qo‘llaniladi. Ushbu o‘rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an‘naviy o‘qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o‘rganish imkonini beradi. Multimedia texnologiya bir vaqtning o‘zida ma‘lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanilishga qodir: matn, garfik, animatsiya, vediotasvir va ovoz. Multimedining ebg muhim xususiyati interfaol-axborot muhitida ishlash jarayonida foydalanuvchiga ta‘sir o‘tkaza olishga qodirlik hisoblanadi.

Texnologiya (grekcha " techno" -hunar ,usta, "logos" - "fan ta'limot) - ilmiy praktika asosida xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish usullari.

Texnologiya - ilmiy bilimlarni inson hayotida amaliy maqsadlar yo'lida yo inson muhitini o'zgartirish va manipulyatsiya qilish maqsadida qo'llanish. U shuningdek nazariy bilimlarni amaliy maqsadlarga erishish uchun (ayniqsa ,bunda jarayon qaytalanishi alohida ahamiyatga ega) qo'llanishi sifatida ta'riflanadi.

Texnologiya (yunoncha techne- san'at, mohirlik , o'quv) - sanoat, qurilish, transport , qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim, shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'zi xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar.

Texnologiya mahsulot ishlab chiqarish uchun sanoat protseslarda foydalanuvchi materialning, xom-ashyoning yoki ayrim mahsulotlarning bichimini, o'lchamini, xususiyatini, quyi o'zgartirish shartlaridan iborat texnologiya.

Umumiy sanoat protsesning bo'lagi bo'lib hisoblanuvchi ishla chiqarish, nazorat qilish haqidagi ish-harakatlar ham texnologiya deb ataladi. Jamoatning o'zgarishiga bog'liq ishlab chiqarishning, xizmatning, o'qitishning va boshqa sohalarga innovatsion texnologiyasi tushunchasi kirilmoqda . Hozirgi vaqtda texnologiya:

- oldingi qatordagi texnologiya.
- qoldiqsiz texnologiya.
- ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi.
- xalqaro standartga mos texnologiya.

Multimedia- zamonaviy texnika va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dastur ta'minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o'zaro ta'siridir. Shu o'rtada matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, vediolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi. Multimedia odatda bir vaqtning o'zida bir nechta media formatlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish

1) multimedia taqdimotlaridan foydalangan holda darslar kompyuter sinflarida multimedia proyektorlari, rezident ma'lumotnomalar, avtomatlashtirilgan o'quv tizimlari, turli xil dasturlarning vedio yozuvlari va boshqalardan foydalangan holda o'tkaziladi;

2) amaliy mashg'ulotlar har bir talabaga alohida kompyuter ajratilishi kerak, bunda uning sinf kodi va talabaning familiyasi ko'rsatilgan shaxshiy papkasini yaratish maqsadga muvofiqdir;

3) individual yondashuvni, shu jumladan individuallashtirilgan o'quv dasturlarini, ko'p bosqichli vazifalar bankini (amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari uchun) keng qo'llash kerak;

4) mashg'ulotlarning muhim qismini ishbilarmon o'yinlar shaklida o'tkazish maqsadga muvofiqdir;

5) loyilar usuli keng qo'llanilishi kerak,uning doirasida izchillik va uzluksiz tamoyillariga rioya qilish kerak; demak bitta global vazifa barcha amaliy (laboratoriya) va

hisoblash va grafik ishlarda izchil bajarilishi, to‘ldirilishi va kengaytirilishi, uyg‘un yaxlit tizimda mujassamlanishi;

6) dasturning asosiy bo‘limlarini parallel va konsentrik o‘rganish imkoniyatini ta‘minlash kerak;

Bu talabalarga kursni o‘zlashtirgani sari butun materialni taqdim etishning yaxlitligini yo‘qotmasdan, har bir bo‘lim bo‘yicha tobora chuqurroq bilim olish imkonini beradi;

7) muammoli o‘qitish usulini kengroq qo‘llash, o‘quvchilar tomonidan o‘quv jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan real dasturlar (hujjatlar, jadvallar, ma‘lumotlar bazalari) ishlab chiqarishni ta‘minlash zarur.

Texnologiya fanini o‘qitishda multimediali vositalardan foydalanish o‘quv jarayoni yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga egavositlardan foydalanish o‘quv jarayonini. Multimedia vositalari, jumladan, plakatlar, chizmalar, namunalar, yo‘riqnomalar, texnologik xaritalar, ko‘rgazmali texnik vositalar, komplek texnikasi, kinofilm, vediofilm kabi elementlar, o‘quvchilarga materialni yaxshiroq anglash va eslab qolishda yordam beradi.

Multimedia o‘qitish metodlari o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu usul o‘quvchilarning eshitish, ko‘rish va amaliy faoliyat orqali bilim olishlarni ta‘minlab, ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, multimedia vositalari o‘qituvchilarga darslarni yanada interaktiv va dinamik tarzda o‘tkazish imkonini beradi. Vedioalar, taqdimotlar va interaktiv mashqlar yordamida o‘qituvchi materialni qiziqarli ba tushunarli tarzda taqdim etishi mumkin.

Biroq, multimedia vositalaridan foydalanishda o‘qituvchilar ularning pedagogik maqsadlarga mosligini va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu usuldan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilar multimedia texnologiyalarini o‘z pedagogik faoliyatlariga to‘liq integratsiya qilishi kerak.

Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-asrning boshlarida kirib keladi. Ko‘pgina mutaxassislar va aytamani turli xil izohlamodalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimediaga shunday ta‘rif berish mumkin: multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an‘anaviy va orginal turlari asosida o‘quv materialini o‘quvchiga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir.

Multimedia tushunchalari juda xilma xil bo‘lib, ko‘pincha har qanday vaqtda mavjud bo‘lgan texnologiyaga bog‘liq. Multimedia so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta‘rif berilgan: multimedia -[ing. Media,medium - o‘rta , markaz, vositalar, tadbirlar] axborot uzatisning xilma-xil vositalari (matn, ovoz, jonlantirilgan va grafik tasvirlar) ni qamrab oluvchi texnologiya va shunday texnologiyadan foydalanuvchi dasturlar va kompyuter vositalari. Dastlabki yillarda ta'riflar ikki va undan ortiq media vositalari haqida ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, keyingi yillarda audio , musiqa, vedio, foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqa, foydalanilinish huquqi to‘liq integratsiyalashgan birikmalar xususiyatlari bilan bir xil ma’noga ega bo‘ldi.

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega;

- Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o‘zlashtirish imkoni bor;
- Ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- Ta’lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- O‘qituvchi sifatida bo‘lish shart emas;
- Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib , kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanini o‘qitishda multimediali vositalardan foydalanish o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishini va faoliyatini faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ularni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash ta’lim samaradorligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Hozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida doimiy ravishda multimedidan foydalanilinish ehtiyoji mavjud. Multimedia texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanish ta’lim sifatini hsmda ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARNING RO‘YXATI:

1. Xo‘jaboev A.R., Osimov Sh. U. Amaliyotni tashkillashtirish va o‘tkazish metodikasi Kasb ta’limi. - Toshkent, 2007.
2. Abduquddusov O.A. Kasb ta’limi va ilg‘or texnologiyalar. Xalq ta’limi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yildagi 2002 yildagi qarori 2002 yil 6 iyunda.
4. Xo‘zhaboev A.R., Xusanov I. Kasb ta’limi metodologiyasi. Toshkent. "Ilm va
5. [Http://www.pepagog.uz](http://www.pepagog.uz)
6. [Http: //www.iste'dod.uz](http://www.iste'dod.uz)
7. "Texnology" Wikipedia (inglizcha) 2024.03.24
8. Britannica, T. Editors of Encyclopaedia(2021, Match 13) technology. Encyclopedia Britannica <https://www.britannica.com/technology/technology>
9. Ta’lim axborot texnologiyalari o‘quv qo‘llanma / R.X Ayubov. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.- T.: TDPU,2020-yil.
10. Abdullaev, S. S (2021, July),SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL EDUCATION . In Euro-Asia Conferences (pp. 168-170).
11. www.tdpu.uz.